

O‘ZBEK XALQ FOLKLOR NAMUNALARINI DUNYO BO‘YLAB TADQIQ QILINISHI

Dildora Umaraliyeva Taxirjanovna,

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: d.umaraliyeva1985@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ma’lumki, o‘zbek xalq folklor namunalari XIX-asrdan boshlab rus, fransuz, nemis, ingliz kabi turli tillarga tarjima qilinib, dunyo bo‘ylab keng miqyosda tadqiq qilina boshlangan. Natijada turli tadqiqot ishlari, to‘plam, ensiklopediyalar dunyo yuzini ko‘rdi.

Kalit so‘zlar: folklor, latifa, ertak, maqol, doston, tarjima, to‘plam.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИМЕРОВ УЗБЕКИСТАНСКОГО ФОЛЬКЛОР ПО ВСЕМУ МИРУ

Умаралиева Дилдора Тахиржановна,

Преподавательница Международной академии исламоведения
Узбекистана

Самостоятельный соискатель в Узбекском государственном университете
мировых языков

E-mail: d.umaraliyeva1985@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Известно, что с XIX века узбекский народный фольклор был переведен на различные языки, такие как русский, французский, немецкий и английский, и широко изучался во всем мире. В результате были опубликованы различные научные работы, сборники и энциклопедии.

Ключевые слова: фольклор, анекдот, сказка, пословица, эпос, перевод, сборник.

RESEARCH OF UZBEK FOLKLORE EXAMPLES AROUND THE WORLD

Umaraliyeva Dildora Takhirjanovna,

Teacher of International Islamic Academy of Uzbekistan
Independent researcher of the Uzbekistan State World Languages University
E-mail: d.umaraliyeva1985@gmail.com

ABSTRACT

It is known that since the 19th century, Uzbek folk folklore has been translated into various languages, such as Russian, French, German, and English, and has been widely studied around the world. As a result, various research works, collections, and encyclopedias have been published.

Key words: *folklore, anecdote, tale, proverb, epic, translation, collection.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmidan O‘zbek xalq maqollarini maxsus to‘plamlar qilish maqsadida ularni tartibga solish boshlandi va ular kitobxonlarning to‘plam va mundarijalariga kiritildi. Jumladan, “Textbook on the Chigatay language” (“Chig‘atoy tili darsligi”) o‘quvchi-lug‘ati 1867 yilda Leyptsigda venger olimi X. Vamberi tomonidan nashr etilgan. Ushbu lug‘atda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va adabiyotining ayrim model va na‘munalari nemischa talqini bilan 112 ta maqol (arab va lotin yozuvida) o‘rin olgan. [A brief review on the investigations of Uzbek linguists in the field of paremiology / Н. О. Машарипова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 10 (114). — С. 1481-1483.] Asarning 2-bobida “Yusuf bilan Ahmad” dostoni (1911) ni berib o‘tadi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, olim bu kitobida birinchi marta Xorazm folklori bilan aloqador bo‘lgan “Yusuf-Ahmad” dostonidan tashqari “Oysanam-Shohsanam”, “Huriliqo-Hamro”, “Oshiq Oydin”, “Xirmon Dali” kabi dostonlar va bir qancha maqollar haqida qimmatli ma‘lumotlarni e‘lon qiladi.

Kitobning “Xrestomatiya” qismida “Maqollar”/Bir necha o‘zbek naqllari bayonida turur. 45-48 betlar/, “Burq devona”/59-70 betlar/, “Me‘rojnomam”/71-84-betlar/, “Sa‘d Vaqqos”/84-94 betlar/, “Zarqum” /144-153-betlar/, “Yusuf-Ahmad”/94-114-betlar/, “Tohir-Zuhra” /154-153 betlar/, “Sayful-Muluk” /187-193-betlar/ singari asarlardan parchalar berilgan. [Рўзимбоев Х.С. Хоразм фольклорининг хорижда ўрганилиш тарихидан /XIX аср ва XX аср боши/: Филол. фан. ном. ... дисс.-1996.-12 б.]

Shu bilan birga, o‘zbek maqollarini to‘plab, ularni rus tiliga tarjima qilishda atoqli rus va o‘zbek folklorshunos olimlari, fan namoyandalari ham N. Ostroumov (1895) [Этнографические материалы . Вып. 3.Пословицы и загадки сартовъ. – Тошкент:Типолитография торгового дома “Ф. И Г. Бр.Каиенские.- 1895. – 174 с.], Y. Chernyavskiy, V. Ro‘zimatov (1959) [Е.Чернявский, В.Рузиматов. Узбекские пословицы и поговорки.-Т.: Гос. изд-во худож. лит-ры.- 1959.-109 с.], N. Gatsunayev (1983, 1988) [Б.И.Саримсаков, А.К.Мусакулов, Н.К.Гацунаев. Узбекские народные пословицы.-Т.: Изд-во Фан.- 1983.-232 с.], A. Naumov

(1985) [M.Murodova. Folklor va etnografiya.-Toshkent.- “Aloqachi”. -T., 2008.,65 bet.] o‘zbek xalq maqollari to‘plamlarini rus tilida nashr etishda katta mehnat qildilar.

N.P.Ostroumov (“Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton”, “Yusuf bilan Axmad” to‘plamlari), yana boshqa rus olimlari V.M.Jirmunskiy, [Жирминский В.М. Народный героический эпос.Л.,ГИХЛ. 1962, ст. 195.] A.Divayev, A.Euxgorn, A.N.Samoylovich, V.Vyatkin, L.Kun, N.Likoshin, P.Komarov, A.Xoroshxin, K.G.Zeleman, Yu.Kazbekov, [Сулейменов О.О., Кажибеков Е.З. Тюркология: вчера, сегодня, завтра // Советская тюркология. – Баку, 1989. №6.] L.Bundzinskiy, M.Rostislavov v.h.lar o‘zbek folklor asarlarini yig‘ib asosan rus tiliga tarjima qilganlar. Xususan, A.N.Samoylovich Xorazm folklor namunalariga katta qiziqish bildirgan va tarjima faoliyatida o‘z xissasini qo‘shgan. Uning “Pishik afsonasi” Xiva talqinini rus tiliga tarjima qiladi [А.Н.Самойлович. “Пишик эфсанеси”- “Сказка об кошкой” (Хивинская версия). Типография Министерства Путей Сообщения. -С.-ПЕТЕРБУРГЪ.-1910.-ст.121-126.].

X.Vamberi, G.Yungbauer, I.Lannerova, I.Sirtautas, M.Shpadu, B.Flaysher, G.Keller, I.Baldauf, Z.Klaynmixel, K.Rayxl kabi nemis olimlari ham o‘zbek folklor asarlarini nemis tiliga tarjima qilishda o‘zlarini ulkan hissalarini qo‘shdilar. [Сапаров А.Дж. Принципы воссоздания национального колорита при переводе произведений узбекского фольклора на русский язык: Автореф. дисс. ...док. фил. наук.-Ташкнт, 2020.-С. 269.] Chunonchi, Xerman Vamberi o‘zbek folklor asarlarini nemis tiliga tarjima qilishda e‘tiborga loyiq ishlar qildi. U 1867-yilda Leyptsigda bosilgan, “Chig‘atoy tili darsligi” kitobining xrestomatiya qismida 112 ta o‘zbek maqolini arab va lotincha yozuvlarda (bunisi transkripsiya tarzida) berdi va ularning o‘zi amalga oshirgan nemischa tarjimasini e‘lon qildi. H.Vamberi mazkur darsligida “Yusuf bilan Ahmad”, “Tohir va Zuhra” dostonidan parchalar beradi. 1911 yilda esa, “Yusuf bilan Ahmad” dostonining esa Xorazm variantini o‘zi amalga oshirgan to‘la nemischa tarjimasini bilan e‘lon qildi. Bu Yevropada birinchi marta o‘zbek eposidan qilingan tarjima edi. Shu o‘rinda, yana bir yetakchi nemis folklorshunos olimi K.Rayxlning ham tadqiqot ishlarini sanab o‘tish joiz sanadik. Uning deyarli 10 yil 1980-1989 yillarda olib brogan ilmiy izlanishlari asosida yaratilgan “Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction” (1989), keyinchalik 1992 yilda mazkur kitobning yana ham kengaytirilgan va boyitilgan nashri “Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure” [Reichl K. Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction. – Hainsworth, 1989.; Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 p.] ingliz tilida Nyu-Yorkda nashrdan chiqadi, u o‘zida o‘n bob, adabiyotlar ro‘yxati va atamalar ro‘yxatini qamrab oladi) kitob

o‘zbek folklorini boshqa turkiy xalq qozoq, uyg‘ur, turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, qirg‘iz doston ertaklarini qiyoslab tahlil qiladi. Unda doston qahramonlari, ularning ijrochilari, qahramonlarining yaratilishi, doston va ertak syujeti, motivi kabi masalalarni yoritib o‘tadi.

O‘zbek xalq maqollarini nashr etish va rus tiliga ogirishda N .P .Ostroumov amalga oshirgan ishlar ham e‘tiborga loyiq. U Sirdaryo oblast statistikasiga oid materiallar to‘plamida 1110 ta (1-jildida 492 ta, 1888-yil va 2-jildida 628 ta, 1891-yil) o‘zbek maqolini originalda va o‘zining rus tilidagi tarjimasida e‘lon qildi.

O‘zbek maqollari, xususan, turkiy xalqlar maqollarini tadqiqi va to‘plash bo‘yicha turk olimlari Ülkü Kuşçu, Hüseyin Kuşçu larning [Ülkü Kuşçu, Hüseyin Kuşçu. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. –İstanbulö 2002.] ham ishlari diqqatga sazovardir. Ularning “Atasözleri ve deyimler sözlüğü” kitobida turkiy maqollar haqida berilgan asarlardagi maqollarni o‘rganib chiqadilar, hamda asarlar ichida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida 266 maqollar jamlanganligini qayd etadilar. O‘zkul Chobanog‘ning ham 2004-yilda “Türk dünyası ortak atasözleri sözlüğü” (Turk olamining o‘xshash maqollar lug‘ati) nomli kitobi nashrdan chiqib, unda 1000 ta turkiy xalqlar bo‘lmish o‘zbek, turk, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, qorachoy-bolqor, qrim-tatar, qo‘miq, no‘g‘ay, tatar, turkman, tuva va yoqutlarning maqollaridagi o‘xshashlik va farqi, sanab o‘tilgan tillardagi shakllari keltiriladi. 1998-yilda o‘zbek va turk olimlari Ibrohim Yo‘ldoshev, Tunjay va Yuksel O‘zturklarga tegishli “O‘zbek va turk maqollari, iboralari” [I. Yo‘ldoshev, Tunjay O‘zturk, Yuksel O‘zturk. O‘zbek va turk maqollari iboralari T.: 1998] lug‘ati o‘zida o‘zbek va turk maqol va iboralarni qiyosiy tahlilini mujassam etadi.

Yana, mash‘hur fransuz tarjimoni Remi Dorning nafaqat ko‘plab o‘zbek asar namunalari fransuz tiliga, balki o‘zbek folklor namunalari-ertak va afsonalarini asliyatdan tarjima qilgani bilan qadrlı bo‘lib, uning “O‘rto Osiyo ertak va afsonalari” [Dor Rémy. Contes et légendes de Centre-Asie. Aux origines du Monde. - Paris, 2000. - 204 p.] to‘plami bunga misol bo‘la oladi. Bu to‘plamda ertaklar o‘zgarishsiz faqat o‘zbek, ozarbayjon, qozoq, uyg‘ur xalq ertaklari deb nomlanayotganligini aytib o‘tadi. [Насирдинова Ё. А. Ўзбек фольклор ва мумтоз адабиёти француз тилида (Реми Дор таржималари асосида): Филол. фан. ном. ... дисс. (PhD). Тошкент, 2019. - 24 б.]

Shu bilan birga, Fransiyada o‘zbek adabiy aloqalarining mustahkamlash samarasi o‘laroq M.Ergashevning “O‘zbek maqollari va matallari”, Sh.Donoyorovning “O‘zbek xalq ertaklari”, E.A‘zam qalamiga mansub “Alvido, sehrli ertaklar!” nomli to‘plamlarning Sh. Minavvarov tomonidan tarjiması va Sh.Yo‘ldoshevning “Buyuk ipak yo‘li ertaklari” fransuz tiliga tarjimalari yuzaga

keldi. [Proverbes et dictons d'Ouzbékistan, traducteurs.: M.Ergashev, I. Niyozov. - Brest: Géorama, 2006. -96 b. Le bucheron et le lion, contes ouzbeks, traduite par Sh Doniyorov. - Parij: Harmatan, 2014. -86 b: Nénuphar/Niluphar: conte ouzbek (trilingue français-ouzbek-russe), traduite par Sh Doniyorov. - Parij: Harmatan, 2013.-16 b. Erkin A'zam. Adieux aux contes des fées. Traduite par Ch. Minovarov. - Toshkent, 2015 yil. Contes de la grande route de la soie -sagesse de l'Orient. Loyiha muallifi va muallifi: O.Ostanov. Traducteur de l'ouzbek en français et concepteur Sh. Yo'ldoshev. -Toshkent: Akademnashr.]

O'zbek folklori namunalari ko'pgina chet tillari kabi ingliz tiliga ham tarjima qilinadi, xususan, 1986 yilda "Folk tales from the Soveit Union" nomi bilan Markaziy Osiyo xalqlari, shular jumlasidan, bir nechta o'zbek xalq ertaklari tarjimalari ham ingliz tilida beriladi. [Folk tales from the Soveit Union. Central Asia and Kazakstan. Raduga Publishers.-Moscov.-1986.-194/] Folklor namunalari tarjimalari haqida so'z borganda Alisher Navoiyning ijodi haqida gapirmaslikning iloji yoq albatta. Adibning ko'pgina ijod namunalari turli tillar qatori ingliz tiliga ham o'zbek va chet ellik tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan, masalan, adibning "Lison-ut tayr" dostoni Kanadalik G. Dik va O'zbekistonlik N.Qambarov va T.Mahmudxo'jayevlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinadi[Alisher Nava'i: The language of the birds (Lison ut-tayr). Tarjimonlar: G.Dik, N.Qambarov, T.Mahmudxo'jayev. T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018;]. Amerikalik adabiyotshunos Denis Deli 2016-yilda Alisher Navoiyning ga'zallarini "Twenty one ghazals by Alisher Navoiy" [Dennis Daly. Twenty one ghazals by Alisher Navoiy. Cervena Barva Press.-2016.-P.62.] ya'ni "Alisher Navoiyning yigirma bir g'azali" nomi bilan ingliz tilida chop ettiradi. Bundan tashqari A.Navoiyning bir qancha g'azal va ruboiylari ham tarjima qilinadi[Уммондан дурлар. Навоий шеърятидан инглизчага таржималар тўплами / Тузувчи Й.Парда. – Т.: Шарқ нашриёт-манбаа концерни, 2000; Sultanova D. Selected gazels of Navoiy. – Т.: Navro'z nashriyoti, 2015; Алишер Навоий: 100 танланган ғазаллар таржимаси (ўзбекча-инглизча). Таржимон: Б.Холбекова, Масъул муҳаррир: Қ.Маъмуров. – Т.: ЎДЖТУ., 2019.]. O'zbek folklori namunalarini chet tiliga tarjimalari haqida so'z yuritilganda Amerikalik folklorshunos M.Petersonning xizmatlarini e'tirof etmaslikning o'zi bo'lmaydi. Uning "Treasury of Uzbek Legends and Lore" (O'zbek xalq afsonalari va og'zaki ijodi namunalari) [Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore.-Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000.] to'plami o'z ichiga bir qancha o'zbek folklor namunalarini oladi, shular jumlasidan, "Jahldor pashsha", "Tulki bilan turna", "Qiz va ajdar", "Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat", "Kelin va baxt qushi", "Ko'milgan xazina" kabi yigirmaga yaqin o'zbek ertaklarining inglizcha tarjimalarini berib

o'tadi. Ertaklar qatorida, maqollar, topishmoqlar, afsona va latifalar kabi o'zbek folklorining yana boshqa namunalari ham keltirib o'tadi. Uning qiymati folklorning bu turkumdagi janrlarini ingliz tilida tanishtirgan birinchi, hamda ko'pgina tadqiqotlarda asosiy manbaalardan biri hisoblanadi. To'plamda o'zbek latifalari tarjimalari ham o'rin olgan bo'lib, ular tahlilini keying boblarda ko'rib chiqamiz.

O'zbek xalq og'zaki ijodini ingliz tiliga tarjima qilishning ayrim masalalari B. A. Shamsiyeva [Шамсиева Б. А. Вопросы узбекского фольклора в зарубежном литературоведении: Автореф. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1994. - 19 с.], K.Rafiqov, N.Yusupova U.Yo'ldoshev, R.Kasimovalarning ishlarida o'rganildi. [Рафиков К. Узбекская литература в зарубежном литературоведении: по материалам американской печати. Дисс. канд. филол. наук. Ташкент, 1981. - 206 с.; Юсупова Х. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодалани (эртактлар, латифалар мисолида): Филол. фан. ном. ... дисс. - Т., 2011. - 26 б.; Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Т., 2017. 42 б.; Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам марос фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. Фил фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2018.] O'zbek folklorini nemis tiliga tarjima qilish muammolari Y. Nurmurodov [Нурмурадов Ю. Б. История изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1983. - 19 с.] va Z.Jumaniyozov [Жуманиёзов З. "Равшан" достонининг немисча таржимасида миллийликни қайта яратиш: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф.-2008.-25 б.]lar asarlarida tadqiq qilingan.

O'zbek adabiyotining fransuz tiliga tarjimalari va ularning o'rganilish tarixi M.Xolbekovning "O'zbek-fransuz adabiy aloqalari (Tarjima, tanqid va idrok)" [Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис. док. филол. наук. Ташкент, 1991.-424 с.] nomli doktorlik ishida va tarjimaning qiyosiy-tipologik xarakteri B.Ermatov, R.Shirnova, F.Salimova, X.Xamroyev, Sh.Isaqova, N.O'rmonovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topadi. [Эрматов Б. Французская реалистическая новелла века в переводе на узбекский язык: Автореф. дисс...ном. канд.филол. наук. Ташкент, 1991. 21с.; Ширинова Р. Диний реалияларни бадий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари (француз адабиётининг ўзбекча таржималари мисолида). Филол. фан. дисс. автореф. Т.: 2002. 24 б.; Салимова Ф. Лексикографические и текстологические Характеристики «Восточно-

тюркского словаря» Паве де Куртеля и переводов «Бабурнаме»: Автореф. дисс. канд.филол. наук. Ташкент,1997.- 24с.: Хамраев.Х.К. Воссоздание национального колорита произведений узбекской прозы во французских переводах (на материале произведений Айбека и А. Каххара). Автореф. дисс. канд.филол.наук. Ташкент, 1998. 19с.: Исокова Ш. И. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс этирилиши (Ойбекнинг “Навойи” романи французча таржимаси мисолида). Филол. фан. ном. дисс. автореф. Тошкент. 2004; Рустамов О. XX аср француз шеъриятн ўзбек тилида (таржимада шакл ва мазмун масаласи). Филол. фан. ном.... дисс. автореф. Самарканд, 1994. -306.] Shuningdek, R.Shirinoва va M.Jo‘rayevalar o‘zbek ertaklarining fransuz tiliga tarjiması xususiyatlarini o‘z doktorlik ishlarida ochib beradilar. [Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2017.-56 б.; Жўраева М. Француз ва ўзбек модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хуссиятлари: Фил. фан. док. ... дисс. автореф. Т.: Академия ноширлик маркази, 2017. - 87 б.]

“Alpomish” dostonining ruscha tadqiqoti esa, K.Jo‘rayevning izlanishlarida aks topadi. [Джураев К. Сопоставительное изучение поэтических переводов в контексте межлитературных и межфольклорных связей. Дис. док. филол. наук. Ташкент, 1991.-326 с.]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жўраева М. Француз ва ўзбек модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хуссиятлари: Фил. фан. док. ... дисс. автореф. Т.: Академия ноширлик маркази, 2017. - 87 б.
2. Насирдинова Ё. А. Ўзбек фольклор ва мумтоз адабиёти француз тилида (Реми Дор таржималари асосида): Филол. фан. ном. ... дисс. (PhD). Тошкент, 2019. - 24 б.
3. Рўзимбоев Х.С. Хоразм фольклорининг хорижда ўрганилиш тарихидан /XIX аср ва XX аср боши/: Филол. фан. ном. ... дисс.-1996.-12 б. A brief review on the investigations of Uzbek linguists in the field of paremiology /
4. Сапаров А.Дж. Принципы воссоздания национального колорита при переводе произведений узбекского фольклора на русский язык: Автореф. дисс. ...док. фил. наук.-Ташкнт, 2020.-С. 269.
5. Рустамов О. XX аср француз шеъриятн ўзбек тилида (таржимада шакл ва мазмун масаласи). Филол. фан. ном.... дисс. автореф. Самарканд, 1994. -306.

6. Исокова Ш. И. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс этирилиши (Ойбекнинг “Навоий” романи французча таржимаси мисолида). Филол. фан. ном. дисс. автореф. Тошкент. 2004.
7. Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Фиол. фан. док. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2017.-56 б.
8. Ширинова Р. Диний реалияларни бадиий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари (француз адабиётининг ўзбекча таржималари мисолида). Филол. фан. дисс. автореф. Т.: 2002. 24 б.
9. Эрматов Б. Французская реалистическая новелла века в переводе на узбекский язык: Автореф. дисс...ном. канд.филол. наук. Ташкент, 1991. 21с.
10. Салимова Ф. Лексикографические и текстологические Характеристики «Восточно-тюркского словаря» Паве де Куртеля и переводов «Бабурнаме»: Автореф. дисс. канд.филол. наук. Ташкент,1997.- 24с.
11. Хамраев.Х.К. Воссоздание национального колорита произведений узбекской прозы во французских переводах (на материале произведений Айбека и А. Каххара). Автореф. дисс. канд.филол.наук. Ташкент, 1998. 19с.
12. Б.И.Саримсаков, А.К.Мусакулов, Н.К.Гацунаев. Узбекские народные пословицы.-Т.: Изд-во Фан.- 1983.-232 с.
13. Машарипова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 10 (114). — С. 1481-1483.
14. Е.Чернявский, В.Рузиматов. Узбекские пословицы и поговорки.-Т.: Гос. изд-во худож. лит-ры.- 1959.-109 с.
15. М.Мurodova. Folklor va etnografiya.-Toshkent.- “Aloqachi”. -Т., 2008.,65 б.
16. Dor Rémy. Contes et légendes de Centre-Asie. Aux origines du Monde. - Paris, 2000. - 204 p.
17. I. Yo‘ldoshev, Tunjay O‘zturk, Yuksel O‘zturk. O‘zbek va turk maqollari iboralari T.: 1998.
18. Ülkü Kuşçu, Hüseyin Kuşçu. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. –İstanbulö 2002.
19. Этнографические материалы . Вып. 3.Пословицы и загадки сартовъ. – Тошкент:Типолитография торгового дома “Ф. И Г. Бр.Каиенские.- 1895. – 174 с.